

ALISHER NAVOIY "XAMSA" SIDA YUSUF PAYG'AMBAR OBRAZINING BADIY TALQINI

Jabborova Dildora Asliddin qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20334905>

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o'lmas merosi – "Xamsa" dostonlarida Yusuf alayhissalom obrazining badiiy-falsafiy talqiniga bag'ishlangan.

Shuningdek, "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab' ai sayyor" hamda "Saddi Iskandariy" dostonlarida ushbu obrazning qo'llanilish darajasi qiyosiy-statistik tahlil qilinadi. Yusuf (a.s.) timsoli orqali ilohiy go'zallik, ishq, sabr va taqdir sinovlari kabi tushunchalar Navoiy ijodida qanday aks etgani baytlar misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Xamsa, Yusuf alayhissalom, badiiy obraz, talmeh san'ati, choh, ilohiy go'zallik, tasavvufiy talqin, qiyosiy tahlil.

Аннотация. Данная исследовательская работа посвящена художественно-философской интерпретации образа пророка Юсуфа (Иосифа) в дастанах бессмертного «Пятерицы» («Хамса») великого мыслителя Алишера Навои. В работе проводится сравнительно-статистический анализ использования данного образа в поэмах «Смятение праведных», «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Семь планет» и «Вариант Искандара». На примере конкретных бейтов (двустуший) демонстрируется, как через образ Юсуфа в творчестве Навои раскрываются концепции божественной красоты, любви, терпения и испытаний судьбы.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хамса, пророк Юсуф, художественный образ, искусство талмих, колодец, божественная красота, суфийская интерпретация, сравнительный анализ.

Abstract. This research paper is dedicated to the artistic and philosophical interpretation of the image of Prophet Yusuf (Joseph) in the epics of the immortal "Khamsa" by the great thinker Alisher Navoi. The work provides a comparative and statistical analysis of the use of this image in the epics "The Confusion of the Righteous", "Farhad and Shirin", "Layli and Majnun", "Seven Planets", and "The Wall of Alexander". Through the analysis of specific couplets, it demonstrates how Navoi utilized the figure of Yusuf to reflect concepts of divine beauty, love, patience, and the trials of fate.

Key words: Alisher Navoi, Khamsa, Prophet Yusuf, artistic image, literary allusion (talmih), the well, divine beauty, Sufi interpretation, comparative analysis.

Bizga ma'lumki, o'rta asrlar Sharq adabiyotida, xususan, forsiy va turkiy she'riyat rivojida "Xamsa"chilik an'anasi alohida ahamiyatga ega. Bu an'anani buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asr boshlarida "Maxzan ul-asror" (1174-1177), "Xusrav va Shirin"(1181), "Layli va Majnun" (1188), "Haft paykar" ("Yetti go'zal",1197) va "Iskandarnoma" (1199-1201) dostonlari bilan boshlab bergan. Ushbu dostonlar keyinchalik ijodkor vafotidan so'ng "Xamsa" (arabcha "beshlik" degani) yoki "Panj ganj" (forsiy tilda "Besh xazina" ma'nosida) nomlari bilan yaxlit kitob holiga keltirildi. Mazkur kitob turli tillarga tarjima qilinib, bir necha ijodkorni shu mavzudagi yirik poetik asarlar yozishga ilhomlantirdi.

1253-1325 yillarda yashab ijod qilgan Xusrav Dehlaviy o'zining fors-tojik tilidagi "Matla ul-anvor" ("Nurlarning boshlanishi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Hasht bihisht"

(“Sakkiz jannat”) va “Oynayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”) nomli beshta dostonni yaratib, Nizomiy “Xamsa”siga to‘la javob yaratdi [2:3]

XV asrda yashagan aksariyat ijodkorlar “Xamsa”ga o‘xshatma yozishga harakat qilgan bo‘lsalar ham, ko‘pchiligi “Xamsa” dostonlari tarkibidagi ayrim dostonlargagina javob bitishdi.

Ikki buyuk ijodkor: Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiygina to‘liq “Xamsa” yaratishga erishdilar [2:3].

Abdurahmon Jomiyning “Xamsa”si beshta emas, yetti dostonni o‘z ichiga oladi:

“Dengizlar siri”, “Lujjatul asror” (875-876);

“Tuhfatul ahror”, “Sabhat ul-abror” (887);

“Yusuf va Zulayho” (888);

“Layli va Majnun” (889);

“Xiradnomai Iskandariy” (890) dostonlaridan iborat va “Haft avrang” (“Yetti taxt”) deb nomlanadi [2:4].

Yuqorida nomi zikr etilgan dostonlarning barchasi fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, ushbu bebaho merosdan faqat fors-tojik tillarini biladigan kitobxonlar o‘qib yoki tarjima qilish orqali bahramand bo‘lishar edi.

Alisher Navoiy ham bu murakkab ishga qo‘l urdi va 1483-yilda, ikki yarim yil ichida “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”, dostonlaridan iborat bo‘lgan “Xamsa” kitobini turkiy tilida yaratib, jahon adabiyotini betakror asar bilan boyitdi [2:4].

Ko‘rishimiz mumkin ushbu dostonlarning obrazlari tarixiy shaxs va payg‘ambarlardan iborat. “Nega aynan tarixiy shaxs va payg‘ambarlarga urg‘u berilgan?” degan savol tug‘iladi.

Barchamizga ma‘lumki, O‘rta asr Sharq adabiyotida payg‘ambarlar, umuman olganda, buyuk tarixiy shaxslar haqida asar bitish an‘ana shaklini olgan. Tarixiy shaxslar va payg‘ambarlar obrazlarining adabiy asarlarga kiritilishi mumtoz va zamonaviy adabiyotda chuqur estetik, axloqiy va tarbiyaviy maqsadlarga ega.

Alisher Navoiy asarlarida tarixiy shaxs va payg‘ambar obrazlarining kiritilishi – bu shunchaki voqeani bezash uchun emas balki: tarixiy haqiqatni obrazli talqin qilish, muallif g‘oyasini ochish, o‘quvchiga axloqiy ta’sir ko‘rsatishdir. Bu ijodiy talqinlar orasida Yusuf alayhissalom siymosi o‘zgacha ahamiyatga ega va manaviyat, go‘zallik timsoli sifatida chuqur yoritilgan.

Qur‘oni Karimdagi “Yusuf” surasi asosida, diniy, didaktik va ma‘naviy kontekstlarda turli adiblar tomonidan turlicha talqin etilgan. “Qush tili” turkumidagi dostonlarda Yusuf obrazi odatda ma‘naviy kamol, sabr va jozibadorlik timsoli sifatida yoritilib, Zulayxo esa nafs istaklarining ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi. Sayyor syujet sifatida Hazrati Yusuf (a.s) bilan bog‘liq hikoyalarning kiritilishi, nafaqat syujetning o‘ziga xos ko‘chma tabiatini, balki uni qabul qiluvchi asarning asosiy g‘oya va maqsadiga qanday uyg‘unlashganini ham ko‘rsatadi. Shu jihatdan, syujetning tamsil va hikoya shaklidagi qo‘llanilishi hamda uni poetik qayta ishlash usullari alohida e‘tiborni talab qiladi [3:3].

“Yusufnoma”lar sayyor syujetga asoslangan boshqa, ya’ni Layli va Majnun, Xusrav (Farhod) va Shirin, Vomiq va Uzro, Tohir va Zuhra, Oshiq G‘arib va Shohsanam kabi afsonalar bilan bir xil taraqqiyot bosqichiga ega emas. Negaki, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”lar haqidagi dostonlar “Yusuf va Zulayxo”dan ko‘ra ancha erkin tarzda rivojlanib borgan. Biroq “Yusuf” qissasining takomili islom dini va uning muqaddas kitobi Qur‘oni karimdagi “Yusuf” surasi ta’siri doirasida kechdi.

Sababi, “Layli va Majnun” qissasi asosida doston yozishga kirishgan shoir o‘zi istaganicha uning syujetini qayta ishlab, yangi fikr va g‘oya kirita bilar, voqealar talqiniga erkin munosabatda bo‘la olar, ulardan qaysi birini istasa, birinchi planga olib chiqar hamda o‘zi istaganicha dunyoviy ishqni tarannum etishi mumkin edi. Ammo “Yusuf va Zulayxo” syujeti asosida yangi badiiy asar ijod qilishga kirishgan shoir ma‘lum ma‘noda yuqoridagi kabi imkoniyatlarga ega emas edi. U qay darajada bo‘lmasin, Qur‘ondagi “Yusuf” surasi ko‘rsatmalariga amal qilishi, Yusuf obrazini alohida fazilatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida talqin qilishi, uning payg‘ambar ekanini nazarda tutishi va uning Xudodan ma‘lum xabarlar olib turishini ifoda etishi zarur edi. Chunki buni Qur‘on talab qilgan. Unga amal qilmaslik hech bir yozuvchi yoki shoirning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan.

Uning syujeti va g‘oyasiga biror o‘zgartirish yoxud yangilik kiritish ijodkordan katta jasorat talab qilgan [4:36].

Alisher Navoiy ijodida Yusuf alayhissalom siymosi, nafaqat Qur‘oni karimdagi qissa asosida tasvirlanadi, balki u go‘zallik, ma‘naviy poklik, sabr va tavakkulning timsoli sifatida o‘ziga xos badiiy yuksaklikda talqin etiladi. Navoiy Yusuf obrazini shunchaki diniy qahramon emas, balki insoniy komillik mezoni sifatida tasvirlab, uni o‘zining estetik va axloqiy idealiga aylantiradi. Xususan, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Yusuf alayhissalom siymosining ta‘rifi va tavsifi keng yoritilgan: “Yusuf a.s. bani odam jinsining jamilrog‘idur. Bir kun o‘z yuzin ko‘zguda ko‘rub, andoqki husn istig‘noyu g‘ururg‘a muqtazodur, ko‘ngliga kechtikim, oyo agar men qul bo‘lsam erdi, mening bahomni kim bera olg‘ay erdi. Chun bu xiyol dalolat bemisillikka qilur, ulkim “laysa kamislihi shay‘un va huvas-sami‘ul-basir”, aning sha‘nidadur. Haq taolo g‘ayrat ko‘rguzub, andoq qildikim, og‘olari Yusufni o‘n yeti qalb diramg‘a sottilar. Va muning kayfiyati bu erdikim, Yusuf (a.s) tush ko‘rub erdikim, gunash-u oy va o‘n bir kavkab anga sajda qildilar...” [1:13].

Shuningdek, Navoiy o‘z ijodidagi g‘azallaridan tashqari 6 ta dostonida ham bu obrazdan badiiy ustalik bilan foydalanib, bayt va hikoyatlar mazmunini yoritishda ramziy vosita sifatida namoyon etadi. “Hayrat ul-abror” dostonida Yusuf alayhissalom tamsiliga 2 o‘rinda murojaat etgan:

Dalvg‘a Yusuf kibi solmay nazar,

Hutda Yunus kibi qilmay maqar [5: 29].

Ushbu bayt dostonning XI bobidan olingan bo‘lib, talmeh san‘ati (tarixiy voqea yoki shaxsga ishora qilish) orqali Yusuf va Yunus payg‘ambarlar qissalariga ishora qilingan.

Navoiy bu o‘rinda payg‘ambarimizning barcha payg‘ambarlar erishgan yuksak darajalardan ham yuqoriroq, pokiza va ilohiy maqomga (Lomakon-makonsizlikka) ko‘tarilganlarini ta‘kidlaydi. U zot nafs moddiyotiga (chelakka tushgan Yusuf kabi) yoki baliq qornidagi kabi ruhiy sinalish holatiga to‘xtab qolmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Arshga ko‘tarildilar.

Shom savodida maxi anvar ul,

Misr Eliga yusufi payg‘ambar ul [5: 148].

Ushbu bayt dostonning XXXIX bobidan olingan bo‘lib, hikoyatdagi hukmdorni Yusuf payg‘ambarning Misr eliga ham shohlik, ham payg‘ambarlik qilganlariga qiyoslab tamsil etgan” [nasriy bayon; bet].

Navoiy “Xamsa”sida Yusuf alayhissalom obrazining turli epizodlarda baytlarda keltirilishiga ko‘ra quyidagicha tasniflarga ajratdik:

Dostonlar nomi	“Hayrat ul-abror”	“Farhod va Shirin”	“Layli va Majnun”	Sab’ai sayyor”	Saddi Iskandariy
Yusuf (a.s) nomi jami keltirilgan ligining soni	2	1	1	3	2
Go’zalligi xususida keltirilgan baytlar	<i>Shom savodida maxi anvar ul, Misr Eliga yusufi payg’ambar</i>	<i>Bo’riga sharx etib gax arzi xolin, To’kib yosh, yod etib Yusuf jamolin.</i>		<i>Shohidi boshidin-ayoq dilkash, Husn bozori ichra yusufvash. Misr shohicha naqdu mol ichra, Yusufi Misrcha jamol ichra.</i>	<i>Chu Yusuf so’zin oshkor aylabon, Zulayho kibi elni zor aylabon.</i>
Yusuf (a.s) yo’qolganligi xususida			<i>Andin bo’lib ul guruh afgor, Itgon Yusufklar talabgor.</i>		
Choh(quduq) va g’urbat musibati tasviri	<i>Dalvg’a Yusuf kibi solmay nazar, Hutda Yunus kibi qilmay maqar.</i>			<i>Bog’latib soldi chohning tahig’a, Yana yer tutdi Yusuf O’z chahig’a.</i>	<i>Ne girdobkim, jarf chohi amiq, Quyosh Yusufin aylatudek g’ariq.</i>

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Alisher Navoiy “Xamsa” asari orqali nafaqat turkiy adabiyotning qudratini ko’rsatdi, balki undagi Yusuf (a.s.) obrazi talqini bilan inson ma’naviy kamoloti konsepsiyasini yangi bosqichga ko’tardi. O’tkazilgan tahlillar quyidagi muhim ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

–Navoiy Yusuf (a.s.) siymosini an’anaviy diniy qoliplardan chiqarib, uni estetik va axloqiy ideal darajasiga olib chiqdi. Shoir uchun Yusuf – shunchaki go’zal chehra emas, balki qalb pokligi, nafs ustidan g’oliblik va ilohiy nurning yerdagi in’ikosidir. “Xamsa”ning har bir dostonida ushbu obraz muayyan g’oyaviy maqsadga xizmat qiladi: “Hayrat ul-abror”da u tarbiyaviy o’rnak bo’lsa, ishqiylar dostonlarda ilohiy muhabbatning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo’ladi;

– Navoiy Yusuf qissasini bayon etishda Qur’oniy haqiqatlarga tayanadi, biroq ularni turkiy she’riyatning badiiy vositalari bilan boyitadi. Ayniqsa, Yusufning quduqdagi holati, Misr

bozoridagi savdosi va Zulayho bilan bog‘liq epizodlar orqali shoir insonning dunyo sinovlari qarshisidagi mardligi va o‘zligini yo‘qotmasligini mahorat bilan tasvirlagan. Bu esa Navoiyning nafaqat buyuk shoir, balki chuqur bilimga ega ilohiyotshunos va faylasuf ekanligini yana bir bor isbotlaydi;

– Yusuf (a.s.) va Zulayho munosabatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Navoiy “ishqi majoziy”dan “ishqi haqiqiy”ga o‘tish g‘oyasini ilgari suradi. Zulayhoning Yusufga bo‘lgan hissiy talpinishi natijada ilohiy ishqqa aylanib borishi – inson ruhining yuksalish yo‘li sifatida talqin etilgan. Bu motiv “Xamsa”ning falsafiy yukini oshirib, asarning umumbashariy ahamiyatini belgilaydi;

– To‘rtinchidan, maqola Yusuf (a.s.) obrazining “Xamsa” dostonlari aro o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi. Navoiy har bir doston syujetiga mos ravishda Yusuf qissasining turli qirralarini (sabr, vafo, kechirimlilik, adolat) bo‘rttirib ko‘rsatadiki, bu butun “Xamsa”ni yagona bir g‘oyaviy-ma‘naviy butunlikka aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik: 8-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 495 bet.
2. Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 416 бет
3. Halimova Sh. Qush tili turkum dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqi: filol.fan.dokt...diss. – T.: ToshDO‘TAU, 2026. – 164 bet
4. Жумаева Д. “Юсуф ва Зулайхо” туркумидаги дostonларнинг қиёсий-матний тадқиқи: филол. фан. докт...дисс. – Т.: ТошДЎТАУ, 2020. – 168 бет.
5. “Наурат ул-аброр” dostoni 262 bet.
6. «Наурат ул-аброр» dostoni nasriy bayoni 110 bet.